

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI NAZARIYASI VA METODIKASI

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Hafizov Shahriyor Shavkatovich, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti,
shahriyor86@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish borasida fikr-mulohazalar yuritilgan. Fuqarolik madaniyati tushunchasining mazmun – mohiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik madaniyati, vatan tuyg'usi, malaka, ko'nikma, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, dinshunoslik.

ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

*Хафизов Шахриёр Шавкатович, аспирант Бухарского государственного
педагогического института, shahriyor86@gmail.com*

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование гражданской культуры у будущих учителей физического воспитания. Обсуждалось значение понятия гражданской культуры.

Ключевые слова: гражданская культура, родиносознание, компетентность, умения, этика, эстетика, педагогика, психология, религиоведение.

FORMATION OF CITIZEN CULTURE IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

*Hafizov Shahriyor Shavkatovich, graduate student of Bukhara State Pedagogical
Institute, shahriyor86@gmail.com*

Abstract: this article discusses the formation of civil culture in future physical education teachers. The meaning of the concept of civil culture was discussed.

Key words: civil culture, sense of homeland, competence, skills, ethics, aesthetics, pedagogy, psychology, religious studies.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asosiy yo'nalishlari» ning qabul qilinishi va uning hayotiga izchillik bilan tadbiq etilishi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish muhim qadamdir.

«Asosiy yoʻnalishlar»da qayd etilishiga fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yaʼni «*kuchli davlatdan kuchli jamiyat*» taʼmoyilini amalda, hayotga joriy etish inson va uning madaniy-maʼrifiy dunyo qarashiga borib taqaladi. Zero, fuqarolik jamiyatining shakllantirishi mehnatkashlarning tashabbuskorligi va tadbirkorligi, adolat-qonunning ustivorligi, fuqarolarning davlat, jamiyat boshqaruviga ishtirok etishi, jamiyat kishilarning oʻz-oʻzini boshqarishdagi faolligi asosida amalga oshadi. Shuning uchun mamlakatdagi islohotlarning asosiy yoʻnalishi ham, mamlakat aholisining madaniyatlik oʻquv gʻoyasini yuksaltirishga qaratilgan. Tayinki, madaniyati boʻlmagan yurt ham, xalq ham inson ham boʻlmagan va boʻlishi ham mumkin emas.

Demak, ochiq fuqarolik jamiyati, avvalo madaniyatli, yaʼni fuqarolik madaniyati shakllangan insonlarga ehtiyo sezadi. Zero, fuqarolik madaniyati shakllangan inson aql-zakovat egasi boʻlib, yaratuvchilik, bunyodkorlik tashabbuskorlik masalalarni oʻziga shakllantirgan, Vatan va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuygʻulari bilan yashaydigan, axloqiy huquqiy burchni, elat va millat oldidagi maʼsuliyaatni tarang anglaydigan shaxs hisoblanadi.

Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishning shakl va vositalarini ishlab chiqish ijtimoiy-pedagogik nazariyaning birinchi galdagi vazifasidir. Ammo, bu juda murakkab va koʻp qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Shunga koʻra, avvalo, «fuqaro», «madaniyat» tushunchalarining mazmun-mohiyatini falsafiy, etnik, estetik pedagogik va madaniyatshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotdagi ahamiyatini anglab, talaba-yoshlar fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonini belgilash muhim pedagogik hodisa hisoblanadi.

Fuqarolik madaniyati tushunchasining mazmun – mohiyatini dastlab «fuqarolik» va «madaniyat» tushunchalariga berilgan taʼriflar jismiga koʻra, koʻrib chiqish, soʻngra «fuqarolik madaniyati»ga pedagogik taʼrif berish maqsadga muvofiqdir.

«*Fuqarolik,-deb qayd etiladi*» Falsafa: Qomusiy lugʻatida,-*kishini qaysi millatga mansubligini emas, balki muayyan mamlakatga, shaxs yashab turgan makonga mansubligini ifodalovchi tushuncha*»)

Bunda fuqarolik tushunchasi kishining maʼlum bir millatga mansubligini emas, balki muayyan mamlakatga mansubligini anglatib shaxs bilan davlat oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalaydigan omil hisoblanadi. Buning uchun har qanday inson oʻzi yashayotgan davlatni tan olsa, uning mustaqilligini taʼminlashga xizmat qilsa, oʻz mamlakatining davlat ramzlari: konstitutsiyani (uning asosida chiqariladigan qonunlarni) tan olsa, tamgʻasi, madhiyasi, bayrogʻi, kuchli armiyasi bilan faxrlansa, u millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, dinga munosabatidan qatʼiy nazar, shu davlatning fuqarosidir.

«Vatan tuygʻusi» risolasining mualliflari (A.Ibrohimov, X.Sultonov, N. Joʻrayev) «fuqaro» va «fuqarolik» tushunchasiga taʼrif berib, shunday yozadilar: «Huquqiy oʻrni qonun bilan mustahkamlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida boʻlishidan qatʼiy nazar, maʼlum bir davlatga qarashligiga fuqarolik deyiladi, shunday huquqga ega shaxs fuqaro deb ataladi»

Fuqaro so'zi o'rnida tabaa, raiyat so'zlari ishlatilganligini, bu so'zlar mazmunida insonning kamtarligi, oddiyligi qayd etilib, ajdodlarimiz «men» so'zini ishlatish odob yuzasidan kibr havo, manmanlikni ifodalaydi deb, bir birlariga «fuqaro», «faqiru haqir» deb murojaat qilganlarni ham qayd etib o'tadilar. Bundan ma'no shuki, nihoyatda kamtarinlik, oddiylilik, hamkorlik, bechoralikka nisbat olinib «fuqaro» so'zi ishlatilgan.

«Mustaqillik: izohli ilmiy–ommabop lug'at»da qayd etilib fuqarolik» tushunchasi qadimiy Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan ammo, o'zining asl ma'nosini keyinchalik fransuzcha «situayn» inglizcha «sitizen», ruscha «gorojanin», «grajdanin» so'zlaridan olgan bo'lib, qoloq qishloq, mustabid feodal munosabatlaridan ozod, erkin inson degan ma'noni bildirgandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, xalqimizning asrlar davomidagi orzu–istaklari demokratiya, adolatli, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat kiritilgandan so'ng, qurishga bu so'z insonparvarlik nuqtai nazarida ishlatila boshlandi. Shundan: «Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy–huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashaqarisida himoyalaniishi tushuniladi»,–deb ta'riflanadi lug'atda. Shuningdek, milliy mustaqillik davlat va shakl o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, quyidagi ijtimoiy qoidalarga asoslangan:–deb, qayd etishi mumkin:

- mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tili, dinidan qat'i nazar teng huquqliligi;
- erkaklar va ayollarning tengligi;
- fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengligi;
- fuqarolikni qay tarzda qabul qilganligidan qat'i nazar, ularning huquqiy holatning bir xil belgilanganligi;
- butun O'zbekiston hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi;
- «ikki davlat fuqarosi» bo'lish qonun bilan man etilganligi;
- fuqarolikni olish va to'xtatish tartibi huquqiy hal etilganligi;
- ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda, bolalar fuqaroligining o'zgarishi tartibi aniq belgilanganligi;
- fuqarolik masalalari bo'yicha huquqiy aktlarni qabul qiluvchi va ijrosini tekshiruvchi davlat organlari tizimi birligi;
- fuqarolik masalalariga oid qarorlar yuzasidan shikoyat qilish tartibining aniq ravshanligi;
- fuqarolik bo'yicha xalqaro shartnomalar turlari, xarakteri qonunda aniq belgilanganligi.

Shunday qilib, muayyan mamlakatda yashovchi, ushbu mamlakatning konstitutsiyasini, qonunlarini davlat ramzlarini hurmat qiluvchi, ularga faxr va iftixor nazari bilan qaraydigan, huquqlari qonun bilan kafolatlangan, shuningdek uning davlat ichkarisi va tashqarisidagi manfaatlari himoyalangan muayyan jamiyatning erkin, ozod, faol, o'zini-o'zi idora eta oladigan insonlariga «fuqaro» yoki «fuqarolik» deyiladi.

Ma'lumki, madaniyat, ma'rifat, fuqarolik kabi masalalar eramizdan oldingi taraqqiyot bosqichida ham, undan keyingi davr taraqqiyotida ham eng dolzarb

masalalardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Kishilik jamiyatning dastlabki ming yillikidir Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon, Parkana Parkent kabi o'lkalarda dastlabki madaniy mehnat qurollari paydo bo'lib, ular insoniyat hayoti va faoliyati taraqqiyoti davomida takomillashib borgan. Shundan madaniyat nazariyasiga asos solinib, uning tarixiga katta e'tibor bilan qarashgan. Shuning uchun «Vatan tarixi va madaniyati, jug'rofiyasi va iqtisodiyotini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur masalaga doir fan va bilimlarni o'qitish muhim, siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i kerak». Shunga ko'ra o'tmishda va hozirgi kunlarda ham jahon faylasuflari, etika, estetika fani namoyondalari madaniyatshunoslar, pedagoglari, madaniyat tushunchasining mohiyat-mazmunini, inson va jamiyat hayotidagi o'rnini anglash, uning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini aniqlash va takomillashtirishga katta e'tibor qaratib ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Amerikalik olimlar A.Kreber va K.Klakxonlarning ta'kidlashicha «madaniyat» tushunchasiga 257 dan ortiq ta'rif mavjud bo'lib, ushbu tushuncha ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning intellektual hayot elementlarini birlashtiruvchi ma'naviy oziqa shaklida tavsiflangan.

Yuqorida e'tirof etilganidek, jamiyat madaniy hayotini rivojlantirishda, shakllantirish, takomillashtirish va uni ilmiy-nazariy asoslash lozim bo'ladi. Shu ma'noda madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini «Madaniyat va fuqarolik jamiyati», «Madaniyat va insonning ma'naviy kamoloti», «Madaniyat va insonning turmush tarzi», «Inson hayotining moddiy va madaniy asoslari» kontenetida tahlil qilish maqolamiz maqsadi nuqtai nazariyadan ilmiy asoslangan hisoblanadi. Chunki jamiyatning iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotida ham, inson kamolotida ham, erkin va farovon turmush tarzini tashkil etishda ham, madaniyat va uning o'zagi hisoblangan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi va shunday bo'lib qoladi. Shu ma'noda madaniyat o'tmishga, bugunga va kelajakka yo'nalgan ijtimoiy hodisa bo'lib, u inson va jamiyat munosabatini, shaxs faoliyatining sifat ko'rsatkichini va pirovard natijada insonning o'zini anglatuvchi omil hisoblanadi.

«Madaniyat» tushunchasining shajarasiga nazar tashlasak, bugungi kunda uning talqini, mazmun-mohiyati, inson va jamiyat hayotidagi, o'rni «Falsafa», «Sotsiologiya», «Etika», «Estetika», «Pedagogika», «Psixologiya», «Dinshunoslik», «Ma'naviyat asoslari», «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Ushbu fanlardagi «Madaniyat»ga berilgan ta'riflardan-u barkamol insonni shakllantirish, yosh avlodni haqiqiy vatanparvar, xalparvar bo'lib yetishishlarini ta'minlash, Vatanni cheksiz mehr-muhabbat bilan sevish buyuk kelajakni yaratuvchilarini, tarbiyalashga ko'maklashuvchi moddiy va ma'naviy boyliklarning nazariy negizi sifatida, tavsiflashganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, falsafa qomusiy lug'atda «Madaniyat»ga (arab.-madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya turgan)-tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli», deb talqin qilinsa, «O'zbek tilining izohli» lug'atining bir joyida «Madaiyat-jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar majmui.. ...» o'tilgan bo'lsa,

ikkinchi joyida o'qimishlilik, ta'lim – tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatli» deb, ta'riflanadi. Demak, bu ta'riflarda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda moddiy va ma'naviy boyliklarning nazariy negizini tashkil qilishga yo'naltirilgan, insonlarning o'qimishliliigi, ta'lim-tarbiya ko'rganligini aks ettiradigan kuch hisoblanishi qayd etiladi. Shuning uchun ham u ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning jismoniy-ma'naviy asosiga, shaxs kamolotiga munosib hissa qo'sha oladigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Rus faylasufi A.K.Kruglova o'zining «Sotsializm. Kultura. Chelovek» nomli monografiyasida madaniyatga shunday ta'rif beradi: «Madaniyat-bu jamiyat, ayrim guruhlar va shaxs ehtiyojini qodirishga yo'naltirilgan, inson kuchlari va mohiyati natijalari sifatidagi aniq tarixiy vositalar tizimidir».

Bu ta'rifda ham, madaniyat tushunchasi moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, insonning ijtimoiy mohiyatini tadqiq qiluvchi, uning ozodligi, erkinligi, faolligini zaruriyatga aylantiruvchi jarayon sifatida tavsiflanmoqda.

Shuning uchun bugungi milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivolantirish, hamda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ma'naviy poklanish va yuksalish uchun kurash avj olib borayotgan davrda madaniyat nazariyasini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish va madaniyatga inson kamolotining muhim omili sifatida qarash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Demak, madaniyatni insoniyat tarixiy taraqqiyoti uchun, muhim moddiy va ma'naviy boyliklarni yod etuvchi omil deb tushunish, uning yaratuvchisi takomillashtiruvchini esa ijodkor, xalq deb bilish maqsadga yaqindir. Shu ma'noda madaniyat o'z mazmuni, mohiyati xususiyatlari, funksiyalariga ko'ra inson va jamiyat taraqqiyotida muhim mavqega egadir. Ushbu fikrga monand holda madaniyatshunos olim K.Amonov madaniyatiga shunday ta'rif beradi: «Madaniyat-insoniyatning borliq va ongning barcha sohalaridagi, u yoki bu madaniy boyliklarda o'z ifodasini topgan tajribalarni o'zlashtirishga asoslangan, tabiat, jamiyat va insonning o'zini yanada qayta qurishga safarbar etilgan ijodiy –ma'naviy faoliyatdir».

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatnig ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan shunday yutuqlar majmui, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlar darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan shartlari yig'indisini bildiradi», shu sababli «Madaniyat kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, maqsadli sa'y-harakatlari natijasida moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir» deb madaniyatning mohiyati va uning ahamiyati sotsiologik nazariyasi nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

Falsafa fanida madaniyat insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi kamolotini, uning insoniy xususiyatlari ifodalovchi me'yorini tavsiflovchi hodisa va insonlar tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmuasi deb izohlanadi. Chunki, madaniyat insoniy ma'no va mazmun kasb etib, moddiy hamda ma'naviy qadriyatlar yaxlitligini ham anglatadi.

Madaniyatning ushbu sifatiy xususiyatidan kelib chiqib, unga «Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning oqibatida yaratilgan moddiy va ma'naviy

qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir»,- deb ta'rif berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 877-883.
2. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 3-8.
3. Шавкатович, Ҳафизов Шаҳриёр. "ЎЗБЕК ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ." *E Conference Zone*. 2023.
4. Shavkatovich, Hafizov Shahriyor. "O 'ZBEK XALQ O 'YINLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 434-434.
5. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "THE ROLE OF AXIOLOGICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE PREPARATION OF STUDENTS FOR SOCIAL-PEDAGOGICAL ACTIVITY." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.12 (2023): 407-410.
6. Shavkatovich, Hafizov Shahryar. "STUDY OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH IN PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SOURCES." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.